


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-fevral*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi 20 862,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 3 228,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 27,9 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 633,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 137,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga kamaygan) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro, Xorazm viloyatlarida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumotlar

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,9 % ga o'sdi va 3 228,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,5 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 17 633,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 2,3 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

2018-yil
yanvar-fevral




2019-yil
yanvar-fevral



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (97,6 %), Sirdaryo (93,3 %), Jizzax (90,7 %) Surxondaryo (90,2 %) va Farg'ona (89,0 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Xorazm viloyatida (27,8 %), Toshkent shahrida (26,7 %), va Buxoro viloyatida (19,7 %) kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Yirik korxonalar (mrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik tadbirkorlik (mrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	3 228,5	127,9	17 633,7	102,3
Qoraqalpog`iston Respublikasi	110,8	182,3	623,8	101,9

viloyatlar:				
Andijon	215,8	145,2	1 445,5	101,3
Buxoro	237,5	194,8	967,3	100,0
Jizzax	65,4	197,9	639,2	100,5
Qashqadaryo	36,4	33,7	1 407,7	106,1
Navoiy	96,7	161,1	715,7	101,7
Namangan	156,7	151,9	1 214,2	103,8
Samarqand	219,3	158,7	1 491,8	101,8
Surxondaryo	126,9	112,9	1 172,6	103,9
Sirdaryo	26,5	112,4	367,9	101,4
Toshkent	243,2	117,4	1 858,6	101,9
Farg'ona	196,1	106,7	1 587,4	102,3
Xorazm	247,5	166,3	641,5	100,9
Toshkent sh.	1 249,7	117,1	3 437,6	103,1


**Hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining respublika
chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Chakana savdo tovar aylanmasida
mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	20 862,2	20 828,9	33,3
Qoraqalpog`iston Respublikasi	734,6	734,2	0,4
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 661,3	1 660,9	0,4
Buxoro	1 204,8	1 204,4	0,4
Jizzax	704,6	704,1	0,5
Qashqadaryo	1 507,1	1 506,8	0,3
Navoiy	812,4	811,4	1,0
Namangan	1 370,8	1 370,2	0,6
Samarqand	1 711,1	1 710,6	0,5
Surxondaryo	1 299,5	1 299,2	0,3
Sirdaryo	394,3	394,3	-
Toshkent	2 101,8	2 101,3	0,5
Farg`ona	1 783,5	1 783,5	-
Xorazm	889,0	888,8	0,2
Toshkent sh.	4 687,4	4 659,1	28,3

2019-yil yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 633,0 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida (Qashqadaryo (98,9 %) viloyatidan tashqari) o'sish ko'rsatkichlarini

tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkishlar Toshkent shahri (1 884,1 ming so'm), Navoiy (840,8 ming so'm) va Toshkent (729,8 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (395,8 ming so'm), Samarqand (455,2 ming so'm), Sirdaryo (479,2 ming so'm) va Qashqadaryo (473,8 ming so'm) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	633,0	103,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	395,8	107,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	546,6	103,6
Buxoro	639,2	109,0
Jizzax	526,4	103,3
Qashqadaryo	473,8	98,9
Navoiy	840,8	104,6
Namangan	502,9	105,7
Samarqand	455,2	104,6
Surxondaryo	511,3	102,5
Sirdaryo	479,2	100,5
Toshkent	729,8	102,2
Farg'ona	488,4	101,1
Xorazm	488,4	111,5
Toshkent sh.	1 884,1	104,6


Shuningdek, 2019-yilning yanvar-fevral oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,0 % ni tashkil etib, 630,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 87,4 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %

2018-yil yanvar-fevral




2019-yil yanvar-fevral



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	630 240,7	602 190,0	28050,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26 426,6	26 367,0	59,6
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	23 964,6	23 964,6	-
Buxoro	37 700,4	37 687,3	13,1
Jizzax	19 363,6	19 285,8	77,8
Qashqadaryo	34 863,9	34 829,6	34,3
Navoiy	21 266,9	20 756,3	510,6
Namangan	17 332,0	17 149,7	182,3

Samarqand	38 866,7	38 698,0	168,7
Surxondaryo	24 967,6	24 836,9	130,7
Sirdaryo	9 389,0	9 389,0	-
Toshkent	58 164,2	57 930,8	233,4
Farg`ona	21 468,8	21 468,8	-
Xorazm	16 471,1	16 303,7	167,4
Toshkent sh.	279 995,3	253 522,6	26 472,7


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-fevral*)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 733,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga kamaygan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, 6 485,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga kamaygan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 74,3 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (85,8 %), Farg'ona (82,0 %) va Buxoro (80,2 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %



*dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 25,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Toshkent (56,3 %) va Navoiy (53,9 %) viloyatlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	8 733,5	103,0	2 248,3	115,2	6 485,3	99,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	177,6	103,9	82,7	148,3	94,9	82,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	237,0	102,1	66,0	104,2	171,0	101,4
Buxoro	275,2	100,7	54,6	113,7	220,7	97,9
Jizzax	167,2	123,9	50,3	280,4	116,9	99,9
Qashqadaryo	332,7	100,2	92,4	73,2	240,3	116,7
Navoiy	225,0	172,7	121,3	391,7	103,7	104,4
Namangan	311,5	102,9	106,7	149,0	204,8	88,6
Samarqand	687,6	104,9	235,6	179,7	452,0	86,2
Surxondaryo	328,2	110,4	83,9	130,5	244,3	104,8
Sirdaryo	199,0	118,8	82,8	153,9	116,2	102,2
Toshkent	929,1	96,9	523,1	92,7	406,0	103,1
Farg`ona	498,7	102,7	89,6	116,4	409,1	100,1
Xorazm	207,2	129,3	68,4	200,0	138,8	110,1
Toshkent sh.	4 157,5	100,2	590,9	96,2	3 566,6	100,8

Mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %


2018-yil
yanvar-fevral

2019-yil
yanvar-fevral



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi
bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




■ Nodavlat mulki
■ Davlat mulki

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	8 733,5	8 724,4	9,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	177,6	177,6	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	237,0	237,0	-
Buxoro	275,2	275,2	-
Jizzax	167,1	167,1	-
Qashqadaryo	332,7	332,7	-
Navoiy	225,0	224,9	0,1
Namangan	311,5	311,5	-
Samarqand	687,6	687,6	-
Surxondaryo	328,2	328,2	-
Sirdaryo	199,0	199,0	-
Toshkent	929,1	928,9	0,2
Farg`ona	498,7	498,7	-
Xorazm	207,2	207,2	-
Toshkent sh.	4 157,5	4 148,7	8,8

Joriy yilning yanvar-fevral oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 8 733,5 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 8 724,4 mlrd. so`mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 9,1 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo`lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. (47,5 %), Toshkent (10,6 %), Samarqand (7,9 %), Farg`ona (5,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Toshkent (96,9 %), Qashqadaryo (100,2 %), Buxoro (100,7 %) viloyatlari va Toshkent shaharlari (100,2 %)da qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi**
Tel.:71-230-80-42 (43)